



BADIIY ASARLARDA DIALEKTIZMLAR AHAMIYATI

Qudratilloeva Nigina

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi badiiy asar va uning tilini tahlil qilish jarayonida shevaga oid birliklarning alohida o'rganilishi, muallif badiiy maqsadini ochib berishda dialektizmlarning roli, fonetik, leksik, morfologik sheva elementlarining badiiy asarning o'ziga xosligini oshirishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'z: *dialekt, badiiy asar, fonetik dialektizm, leksik dialektizm, sheva, lingvopoetika.*

Hozirgi kunda badiiy asarning tilini, uning g'oyaviy semantikasini o'rganish bo'yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bunday tadqiqotlar lingvopoetika sohasining rivoji uchun asos bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, S.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, X. Doniyorov kabi professor olimlarimizning badiiy asar lingvopoetikasi rivoji uchun xizmatlari katta bo'ldi. Badiiy asar tilini tahlil qilishda, unda ishtirok etgan hech bir element ko'zdan qochirilmasligi lozim, sababi unda qatnashgan nafaqat har bir so'z, balki har bir qo'shimcha ham o'z vazifasiga ega. Badiiy asarning mukammal darajada yozilishi uchun, uni o'quvchilarga qaynoq holda tortiq qilish uchun unda ishtirok etgan har bir element o'z hissasini qo'shadi, shu jumladan dialektizmlar ham badiiy asar tilining yanada mukammal va boy bo'lishini ta'minlaydi. Hatto tilshunoslarimizning ko'pchiligi badiiy asardagi shevaga oid bir qancha birliklar bilan tanishib chiqqandan so'ng "dialektizmlarning haqiqiy estetik mohiyati, asosan, personajlar nutqida yaqqol ko'rinadi, dialektlar harakatlarini ochishda va ekspresivlik imkoniyatlarini ana shu personaj nutqida haqli ravishda namoyon qila oladi" degan fikrga ham kelishdi¹. Badiiy asar muallifi dialektik birliklarni o'z asarida ma'lum bir maqsadni ko'zlab qo'llaydi va sheva elementlari yordamida bu ishning uddasidan chiqadi. Ijodkorning asosiy maqsadi:

- a) mahalliy koloritni yuzaga chiqarish;
- b) qahramon nutqidagi o'ziga xoslikni ko'rsatib berish;
- c) so'z takrorlaridan qochib ularning sinonim variantlarini qo'llash va hokazolar bo'lishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, muallif ifodalamoqchi bo'lgan so'zning adabiy tilda muqobil varianti topilmaslik holatlari ham tez-tez uchrab turadi. Shunday vaziyatda muallifga "bir tilning faqat ma'lum hududiga xos bo'lib, boshqa joylarda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar²" guruhi yordamga keladi. Muallif

¹ Abdirahmonov H., Maxmurov N. So'z estetikasi. –T.: Fan, 1981. B.5-26.

² 5-sinf ona tili darsligi –Toshkent: Ma'naviyat,2015. B.184. B.225



asarida bunday soʻzlardan foydalanib, oʻz oldiga qoʻygan badiiy maqsadiga erishadi. Badiiy asarlarda asosan:

a) fonetik dialektizmlar – Müslimä büvi // tüvāqni // qāzān četigä žājlāštirib qojdi - dā (Sh. Xolmirzayev. Oʻn sakkizga kirmagan kim bor. – B 27.)³// – Bilgändä //qändāq//: qoʻshimizni yälqāvligidän-dä.⁴

b) leksik dialektizmlar– Nāgähān içimdä nimädir // šävšāb-šävdirāb //, bir xil bölib ketdim.⁵// Bemār čökkän közlärini // xijāl // āčib, derāzā pārdāsiga qarādi.⁶

c) morfologik dialektizmlar – 1. – Xa, köziņ tüšsā āl, // devdilār //- Körinmäjmän // böpti //⁷

Bundan tashqari shevadagi soʻzlar nafaqat nasriy asarlarda, balkim sheʼriyatda ham kuzatiladi.

Büxārādä //ināk// derlār,

Qipčāq eldä //üjdir// āti.

Dājim süjib göštin jerlār,

Süt berādi har bir zāti.

Xāšāk üšlāb üngä čāpiņ,

Nimādir ü, qani, tāpiņ.

//Bibijānlār// nābirāsin,

Atrāfidä āvvārādir.

Bālā üçün bebāhā tāxt –

Millij büjüm //gavārādir//.

Bālā jiylār, qani, chāpiņ,

Bü nimādir, tezdä tāpiņ. (U.Qoʻldosheva)

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, qaysiki adibning asari ogʻizga tushgan, oʻquvchilar diqqatiga sazovor boʻlgan va keng auditoriyani qamrab olgan boʻlsa, shu asarning betakror joziba kasb etishida va oʻqilishligini taʼminlashda dialektizmlarning oʻrni beqiyos va takrorlanmasdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. –T.:2021. B. 68. B. 175.
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978. B. 27.
3. Rahimov S. Surxondaryo viloyati oʻzbek shevalari. –Toshkent: Fan, 1985. B. 20-70.

³ Xolova M. Oʻzbek milliy shevalari korpusi tadqiqi. –Termiz.2022. B.13 B.139

⁴ www.ziyo.uz.com. Kutubxonasi. Ulugʻbek Hamdam. Naʼmatak.

⁵ www.ziyo.uz.com. Kutubxonasi Erkin Aʼzam. Chapaklar va chalpaklar.

⁶ Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalari. : -- Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2012-y. – 200b.3-bet.

⁷ Tohir Malik. Alvido... bolalik [matn] qissa. Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi 2021. – 215b. 48-bet.



4. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.
5. Abdirahmonov H., Maxmurov N. So‘z estetikasi. –Т.: Fan, 1981. В.5-26.
6. Fayzullayev B. Badiiy asarlarda dialektizmlar. NDA-T.1979.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.DDA-T, 2009.
8. Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san’ati –Т, 1962.